

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Gulchehra G'AFFAROVA
Saodat TOSHTEMIROVA**

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI
O'QITISH METODIKASI**

DARSLIK

TOSHKENT - 2024

UO'K: 37.092.33

KBK 74.6

G. G'affarova, S.Toshtemirova. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi / darslik. – Toshkent: “City of book”, 2024. – 356 b.

Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat ta'lim standarti asosida fanning namunaviy o'quv dasturiga mos ravishda 70112101 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) ta'lim yo'nališining magistratura bosqichi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, undan barcha ta'lim yo'nališlari talabalari, magistrant va mustaqil izlanuvchilar, fan o'qituvchilari, oliy ta'limdagi transformatsiyalarni mustaqil o'rganmoqchi bo'lganlar foydalanishlari mumkin. Shuningdek, darslikda “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi” fanidan mavzularga oid asosiy savollar, tayanch tushunchalar, tushuntiruvchi nazariy matn, mavzularni o'zlashtirish uchun topshiriqlar, testlar, glossariy, har bir mavzu doirasida asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Darslik Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida tayyorlangan.

Taqrizchilar:

Nazarov N.A. — falsafa fanlari doktori, professor

Siddiqov I. — falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagи 314-sonli buyrug`iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-780-17-2

KIRISH

XXI asrning murakkab muammolaridan biri jamiyatni va insoniyatni boshqarish bo‘lib, masalani qiyinchiligi ham bu muammoni yechishga qaratilgan jarayonni o‘sib borayotganligidadir. Insoniyatning aql idroki, fanlarning shiddatli rivojlanishi, innovatsion g‘oyalarning samaradorligi va qolaversa inson kapitali tushunchasining kengayib borayotganligi bu ziddiyatlari va murakkab olam manzarasini anglash va tushunishda o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Globallashuv, ijtimoiy, siyosiy inqirozlar ro‘y berib turgan sharoitda butun insoniyat burilish davrini boshdan kechirmoqda. Jamiyatimiz mohiyati, uning hayoti va rivojlanish qonuniyatları, undagi hodisa va jarayonlarni o‘rganuvchi masalalar ijtimoiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘ladigan muammolarni ilmiy asosda hal etish uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarni yanada rivojlantirish zarur.

Albatta, bugun insoniyat hayotida kechayotgan murakkab, ziddiyatli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, turli daraja va ko‘lamlarda namoyon bo‘layotgan muammo va illatlar zamonaviy jamiyatlarda yuz berayotgan ma’naviyatsizlik, uni bartaraf etishda muhim o‘rin tutuvchi falsafiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni yetarlicha o‘qitilmayotgani tufayli kelib chiqmoqda. Darhaqiqat, insoniyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida dunyo xalqlari hayotida ma’naviyatga, uni ilmiy asoslarda rivojlantirishga ehtiyojar ortib bormoqda. Buni bugungi global muammolar tizimida ma’naviy inqirozlarning chuqurlashayotgani va bu jarayonning oldini olishga qaratilgan demokratik intilishlarda, dunyodagi har bir xalq va mamlakat taraqqiyotida ma’naviyat va mafkuraning g‘oyat muhim, ba’zan esa hal qiluvchi rol o‘ynayotganida yaqqol ko‘rish mumkin. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining asosi – ma’naviyat, deb e’tirof etilgani va mustaqillik yillari bu boradagi ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani bejiz emas.

Hozirgi kunda fan-texnika yutuqlari, ilmiy tadqiqot natijalarini xalq xo‘jaligining muhim sohalariga tatbiq etish har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, inson kapitalini har tomonlama rivojlantirish, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining intellektual, ilmiy va iqtisodiy qudratini, shuningdek ravnaqi va mustaqilligini ta’minlashga qodir bo‘lgan xalqaro standartlar darajasida mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur va qulay shart-

sharoilar yaratishda magistratura bosqichida o‘qiladigan “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi” fanining alohida o‘rni bor. Chunki, ushbu fan yosh izlanuvchiga ilmiy tadqiqot mazmuni, uni tashkil etish, boshqarish, tadqiqotchilik ko‘nikmasini rivojlantirish, mutaxassislikka oid spetsifik bilimlar bilan tanishishga imkoniyat yaratadi.

Ma’lumki, qayerdaki ma’naviyat, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni yetarlicha tushunilmasa, uni rivojlantirishda asosiy o‘rin tutuvchi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishga jiddiy e’tibor berilmasa, o‘sha yerda muammolar kamayish o‘rniga ko‘payishi mumkin. Xususan, hozirgi davrda dunyodagi ko‘plab xalqlar hayotida, jumladan, O‘zbekistonda ham namoyon bo‘layotgan muammo va illatlarning aksariyati aynan ma’naviyatsizlik, ma’naviyat masalalariga yetarlicha e’tibor bermaslik, bu borada muhim o‘rin tutuvchi falsafiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni yetarlicha o‘qitmaslik tufayli kelib chiqmoqda. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, bugungi insoniyat ijtimoiy hayotidagi barcha bosqich, soha, yo‘nalish, daraja va ko‘lamda namoyon bo‘layotgan turli muammolarni hal etilishi ayni shu sohadagi ishlar samaradorligiga bog‘liqdir.

Darslikda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning nazariy asoslari bilan birga ushbu fanni o‘zlashtirish jarayonida barcha o‘rganilayotgan fanlardan foydalaniladi: falsafa, milliy g‘oya, ma’naviyat, huquq fanlar va boshqalar. Ushbu fanni o‘zlashtirishda talabalar ijtimoiy fanlar sohasida keng nazariy bilimlarga, falsafiy tasavvurga ega bo‘lishi, ya’ni ijtimoiy fanlarning konseptual apparati, shu jumladan ma’naviyat, milliy g‘oya, amaliy tadqiqotlarni loyihalashtirish va o‘tkazish metodologiyasi, ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ushbu fanni o‘zlashtirish o‘quv amaliyoti jarayonida ma’ruzalar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni malakali va to‘g‘ri o‘tkazish uchun zarurdir.

1. “IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISH METODIKASI (MA’NAVIYAT ASOSLARI)” FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA ILMIY ASOSLARI REJA

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.
2. Dars o‘tish metodlari va unga turli jihatdan yondashish.
3. Didaktika, uning tamoyillari va o‘quv jarayonini tashkil etish.
4. Ta’lim tizimida o‘qitishning asosiy shakllari.

1.1. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) fanining predmeti, maqsadi, vazifalari

Inson va jamiyat hayotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni, ularni ta’lim tizimida o‘qitishning nazariy va uslubiy masalalari barcha davrlarda dunyo olimlarining e’tiborida bo‘lib, bu borada o‘ziga xos ilmiy qarash, nazariya va ta’limotlar yaratilgan. Ularni atroflicha o‘rganish natijasi sifatida aytish mumkinki, tub ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko‘ra ta’lim-tarbiya institutsional tizimi faoliyatining strategik maqsadi – faqatgina u yoki bu soha uchun mutaxassis-kadrlar tayyorlash emas, balki keng ma’noda, insonni tarbiyalash, ya’ni jamiyat a’zolarida ijtimoiy hayot va taraqqiyot talablariga mos bioijtimoiy xossa-xususiyatlarni shakllantirish, ularda chin insoniy xislat va fazilatlarni kamol toptirishdir. Shunga ko‘ra ta’lim-tarbiya tizimidagi asosiy masala faqat matematik, fizik, ximik yoki injiner, vrach, o‘qituvchi kabi turli sohalar bo‘yicha mutaxassis-kadr yetishtirish bo‘lib qolmasligi kerak, bular ikkinchi yoki undan keyin turadigan masala. Bu o‘rinda kasb-hunar yoki ixtisoslikka oid bilim, malaka, ko‘nikma va ma’lumotlar emas, insoniy fazilatlar birinchi o‘rinda turadi.

Negaki, jamiyat uchun, ijtimoiy hayot va taraqqiyot uchun avval u yoki bu kasb-hunar yoki alohida bir ixtisoslikka oid bilim, malaka va ko‘nikma emas, chin insoniy xislat va fazilatlar muhimroq. YA’ni odamzod injiner, vrach yoki agronom bo‘lishdan oldin albatta inson bo‘lishi kerak. Chunki injiner, vrach yoki agronomdan inson emas, balki insondan injiner, vrach yoki agronom chiqarish mumkin. Shunga ko‘ra, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-

talabalarga avvalo inson va jamiyat haqidagi bilimlar berilishi, ularga ana shu bilimlarni beruvchi ijtimoiy-gumanitar fanlar albatta o‘qitilishi zarur.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishdan maqsad – talabalarda yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash mahorati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, yangi bilimlarni yarata olish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi esa ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalar, muammolilik prinsipi, ilmiy maktablarning ahamiyati, zamonaviy yondashuvlar, axborot va axborot texnologiyalarining ta’siri, bilimlar transformatsiyasi, fanlararo metodologiya kontekstida o‘rganish va egallangan bilimlardan amaliyotda foydalanish malakalarini shakllantirishdir.

Hozirgi vaqtida to‘liq huquqli mutaxassis insonning tanlangan shaxsiyatiga ko‘ra botlar uchun zarur bo‘lgan intizom doirasini hisobga olmaganda, hatto a’lo darajada o‘zlashtirgan odam bo‘lolmasligi deyarli umumiyl qabul qilingan pozitsiyaga aylandi. Aynan gumanitar intizomning rivojlanishi, bir tomonidan, insonning kasbiy muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratishga imkon beradi. Ikkinchi tomonidan, «qidiruv» intizomi tufayli yuzaga keladigan shunga o‘xshash rivojlanish sifatida butun ta’lim jarayonining o‘ziga xos enteleksiyasiga ya’ni ta’limning asosiy maqsadi - yuqori rivojlangan shaxsni shakllantirishga yo‘naltiradi. Ammo inson haqidagi fan mazmunidan va inson yaratgan borliqning o‘sha bo‘lagi – jamiyat va madaniyatdan foydalanmasdan turib uni yaratish mumkin emas.

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil "17" Iyul dagi "314"-sonli buyrug'iga asosan

G.G'.G'affarova, S.A.Toshtemirova

(muallifning familyasi, ismi-sharifi)

*Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat
(ta'lif yo'nalishi (mutaxassisligi)
asoslari)*

ning
talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

ga
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.

Vazir



I.Abduraxmonov

No 314 - 165